



“OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

OILA, XOTIN-QIZLAR VA IJTIMOIY HAYOT

elektron ilmiy jurnal

3/2022

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan. “Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv” jurnalining vorisidir.

Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.

ISSN 9874-4126

TOSHKENT

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (Bosh muharrir) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*
MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna (Bosh muharrir o‘rinbosari) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*
ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
BEGIMQULOV Uzoqboy Shoimqulovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*
FARFIYEV Bahromjon Atxamdjanovich – *sotsiologiya fanlari doktori, dotsent.*
ISHQUVATOV Valiql Turdiyevich – *tarix fanlari doktori, professor.*
KARAMYAN Marietta Xachaturovna – *psixologiya fanlari doktori, professor.*
MUSLIMOV Narzulla Alixanovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*
NURMATOVA Mukarram Axmedovna – *falsafa fanlari doktori, professor.*
NARMATOV Nuriddin Soatmuradovich – *yuridik fanlari doktori, professor.*
RAHMANQULOVA Nilufar Xodji-Akbarovna – *yuridik fanlari doktori, dotsent.*
SAYDIVALIYEVA Xurshida Xodjiakbarovna – *yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).*
ATAMURATOV Rasuljon Kadirjonovich – *pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).*
SODIQOVA Shohida Marhobayevna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*
ZOHIDOV Azamatjon A‘zamovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
IBRAGIMOV Lutfullo Ziyodullayevich – *geografiya fanlari doktori, dotsent.*

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (Главный редактор) – *доктор педагогических наук, профессор.*

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – *доктор социологических наук, профессор.*
Мусурманова Айниса Мусурмановна (Заместитель главного редактора) – *доктор педагогических наук, профессор.*
Абдураманов Хамид Худайбергенович – *доктор экономических наук, профессор.*
Бегимкулов Узокбой Шоимкулович – *доктор педагогических наук, профессор.*
Фарфиев Бахромжон Аtxамджанович – *доктор социологических наук, доцент.*
Ишкuvatov Валикул Турдиевич – *доктор исторических наук, профессор.*
Карамян Мариэтта Хачатуровна – *доктор психологических наук, профессор.*
Муслимов Нарзулла Алиханович – *доктор педагогических наук, профессор.*
Нурматова Мукаррам Ахмедовна – *доктор философских наук, профессор.*
Нарматов Нуриддин Соатмурадович – *доктор юридических наук, профессор.*
Рахманкулова Нилуфар Ходжи-Акбаровна – *доктор юридических наук, доцент.*
Сайдивалиева Хуршида Ходжиакбаровна – *доктор философии юридических наук (PhD).*
Атамуратов Расулжон Кадиржонович – *доктор философии педагогических наук (PhD).*
Содикова Шохида Мархобаевна – *доктор социологических наук, профессор.*
Зохидов Азаматджон Азамович – *доктор экономических наук, профессор.*
Ибрагимов Лутфулло Зийдуллаевич – *доктор географических наук, доцент.*

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna (Editor-in-Chief) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*
Musurmanova Aynisa Musurmanovna (Deputy Editor-in-Chief) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*
Abduramanov Khamid Khudaybergenovich – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*
Begimkulov Uzokhboy Shoimkhulovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*
Farfiyev Bakhromjon Atkhamdjanovich – *Doctor of Sociological Sciences, Associate Professor.*
Ishkuvatov Valikhul Turdiyevich – *Doctor of Historical Sciences, Professor.*
Karamyan Marietta Khachaturovna – *Doctor of Psychological Sciences, Professor.*
Muslimov Narzulla Alikhanovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*
Nurmatova Mukharram Akhmedovna – *Doctor of Philosophical Sciences, Professor.*
Narmatov Nuriddin Soatmuradovich – *Doctor of Law Sciences, Professor.*
Rakhmankulova Nilufar Khodji-Akbarovna – *Doctor of Law Sciences, Assistant Professor.*
Saydivaliyeva Khurshida Khodjiakbarovna – *Doctor of Philosophy in Law (PhD).*
Atamuratov Rasuldjon Kadirdjonovich – *Doctor of Philosophy in Pedagogy (PhD).*
Sodikova Shokhida Markhobayevna – *Doctor of Sociological Sciences, Professor.*
Zokhidov Azamatjon Azamovich – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*
Ibragimov Lutfullo Ziyodullayevich – *Doctor of Geographical Sciences, Assistant Professor.*

SOTSILOGIYA

Xomitov K.Z. Qishloq ayollarini ish bilan ta'minlashning samarali tashkiliy mexanizmlari ta'sirini aniq sotsiologik baholash..... 4

JAMIYAT VA OILA

Ramatov J.S. O'zbekiston yoshlari – kelajagimiz poydevori 15

Yulchiyeva D.X. O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda amalga oshiralayotgan islohotlarning muhim ahamiyati 22

Акбаров А.А. Толерантность – это свобода в многообразии..... 31

Bo'riyeva M. Oila instituti mustahkamligiga turmush o'rtoq intellekt darajasining ta'siri..... 37

Pardayev S.A., Axatova M.Sh. Shaxsda musiqa madaniyatini shakllantirishda oilaning roli..... 45

XOTIN-QIZLAR HUQUQLARI VA GENDER TENGLIGI

Каримова Д.М. Гендерное равенство: почему этот вопрос становится актуальным в Узбекистане 52

PEDAGOGIKA

Mavlonov B.B. O'smir yoshdagi bolalarning fazilatlarini rivojlantirishda atrof-muhit va pedagogik guruh faoliyatining ta'siri..... 61

IQTISODIYOT

Shayusupova N.T., Amirdjanova S.S. Relationship between employment and economic growth in Uzbekistan 75

Adilova Z.D., Umirova D.S. Modern factors in the development of regional tourism..... 89

Meliboyev A.R., Masharipov F.O'. Mehnat bozori ehtiyojlari asosida yoshlarni zamonaviy va sifatli kasb-hunarga o'qitish 98



Yulchiyeva Dildora Xabibullayevna,
*“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot
instituti kichik ilmiy xodimi*

O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLIGINI OSHIRISHDA AMALGA OSHIRALAYOTGAN ISLOHOTLARNING MUHIM AHAMIYATI

Annotatsiya. *Bugungi kunda O‘zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda amalga oshiralayotgan islohotlar hamda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan chora-tadbirlarning muhim ahamiyati orqali vazifalarni amalga oshirishda tariximiz va bugungi kunimizdagi holatini e‘tiborga olgan holda o‘rganish, tahlil qilish hamda kerakli taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega.*

Аннотация. *Изучение значения проводимых сегодня в Узбекистане реформ по повышению общественно-политической активности женщин и принимаемых мер по поддержке женщин, с учетом нашей истории и современного положения в реализации поставленных задач, анализ и выработка необходимых предложений и рекомендаций имеет важное значение.*

Annotation. *The study of the significance of the reforms being carried out today in Uzbekistan to increase the socio-political activity of women and the measures taken to support women, taking into account our history and the current situation in the implementation of the tasks set, the analysis and development of the necessary proposals and recommendations play important role.*

Tayanch so‘zlar: *xotin-qizlar, ijtimoiy-siyosiy faollik, farmonlar, Xotin-qizlar davlat qo‘mitasi, zamonaviy ayol, milliy tarixiy shaxslar.*

Ключевые слова: *женщины, общественно-политическая деятельность, указы, Государственный комитет женщин, современная женщина, отечественные исторические деятели.*

Keywords: *women, social and political activity, decrees, State Committee of Women, modern woman, domestic historical figures.*

Kirish. Tariximizga bir nazar solsak, qanchadan qancha buyuk ishlar boshida To‘maris, Bibixonim, Nodirabegim, Uvaysiy, Zulfiya kabi ayollar turganiga guvoh bo‘lamiz. Ular o‘z jasorati, aql-idroki va mardligi bilan tarixga o‘z ismlarini muhrlab qo‘ygan. Shunday siymolar davomchilari ekanligimizning o‘ziyoyq bugungi kun xotin-qizlarga g‘urur va sharaf tuyg‘ularini his qilishga sabab bo‘la oladi. Yurtimiz mustaqillikka erishgach, xotin-qizlarning har sohada ijtimoiy-siyosiy faolligiga bo‘lgan e‘tibor yuksaldi. Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o‘z qobiliyat hamda imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun kerakli bo‘lgan shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya qilinishini ta‘minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlash borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari” to‘g‘risida PF-5325-sonli Farmoni e‘lon qilindi¹. Mazkur Farmon asosida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda, jumladan, ta‘lim muassasalarida rahbar ayollarning o‘quv jarayonida samaradorligini oshirish sohasida olib borilayotgan ishlar tahsinga sazovordir. Umuman olganda, O‘zbekistonda xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va mavqeyini mustahkamlash borasida davlat ahamiyatiga molik salmoqli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Zero, jamiyat rivojini xotin-qizlarsiz, ularning ishtirokisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu bois ayollarning oilada ham, davlat va jamoat ishlarida ham emin-erkin faoliyat yuritishlari, ularning huquq va manfaatlarini ro‘yobga chiqarish yo‘lida mamlakatimiz miqyosida qator chora-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilmoqda.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81-son Farmonida oila institutini mustahkamlash va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat siyosatining 7 ta ustuvor yo‘nalishi, shuningdek, qo‘mitaning asosiy vazifa va faoliyat yo‘nalishlari belgilab berildi.²

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81-son Farmonida oila institutini mustahkamlash va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat siyosatining 7 ta ustuvor yo‘nalishi, shuningdek, qo‘mitaning asosiy vazifa va faoliyat yo‘nalishlari belgilab berildi

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 2 февралдаги “Хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш ва оила институтини мустаҳкамлаш соҳасидаги фаолиятни тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари” тўғрисида ПФ-5325-сонли Фармони.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 1 мартдаги “Оила ва хотин-қизлар билан ишлаш, маҳалла ва нуронийларни қўллаб-қувватлаш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-81-сон [Фармони](#).

***Farmonda
O‘zbekiston Xotin-
qizlar davlat
qo‘mitasining
jamiyat hayotidagi
faolligini oshirish,
xotin-qizlarni
qo‘llab-quvvatlash
va oila institutini
mustahkamlash
sohasidagi
faoliyatni tubdan
takomillashtirish
maqsadida qo‘mita
faoliyatining
ustuvor
yo‘nalishlari
belgilab berildi.
Xotin-qizlar
qo‘mitasi va
uning hududiy
bo‘linmalarining
yangilangan
tuzilmalari
tasdiqlandi***

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-son Farmoni³ bilan 2022–2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha Milliy dastur hamda 2022–2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha Milliy dasturni 2022–2023-yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi.

Mazkur hujjatlardan oila institutini yanada mustahkamlash, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya qilinishini ta‘minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ayollarning jamiyat hayotidagi nufuzini, faolligini oshirish, mehnatini munosib rag‘batlantirish, tashkilotchilik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik qobiliyatini qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlar ko‘lamini kengaytirish masalalari o‘rin olgan.

Farmonda O‘zbekiston Xotin-qizlar davlat qo‘mitasining jamiyat hayotidagi faolligini oshirish, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish maqsadida qo‘mita faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi. Xotin-qizlar qo‘mitasi va uning hududiy bo‘linmalarining yangilangan tuzilmalari tasdiqlandi.

Shu o‘rinda, O‘zbekistonda ushbu yo‘nalishdagi me‘yoriy-huquqiy bazani rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarga to‘xtalish maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘tgan yillar mobaynida ayollar manfaatlarini himoya qilishga yo‘naltirilgan qariyb 100 ta milliy va xalqaro huquqiy hujjat qabul qilindi va ratifikatsiya qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 8-mart – “Xalqaro xotin-qizlar kuni” bayramiga bag‘ishlangan uchrashuvdagi nutqida shunday degan: “O‘zbekiston deb atalgan jonajon Vatanimizda har qaysi mard yigit, avvalo, mehribon onasi, oilasi, farzandlari baxtli bo‘lishini istaydi, albatta. Hazrat Alisher Navoiy bobomiz aytganlaridek, bu yo‘lda o‘zining butun borlig‘ini bag‘ishlashga tayyor turadi”.

Asosiy qism. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda turli soha va tarmoqlarda mehnat qilayotgan ishchi va xizmatchilarning 45 foizini

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 7 мартдаги “Оила ва хотин-қизларни тизимли қўллаб-қувватлашга доир ишларни янада жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-87-сон [Фармони](#).

xotin-qizlar tashkil etadi. Jumladan, davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1400 ga yaqin xotin-qiz rahbarlik lavozimlarida mehnat qilmoqda. Ulardan 17 nafari senator, 16 nafari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, 1075 nafari esa xalq deputatlari mahalliy kengashlari tarkibida faoliyat yuritmoqda.

O‘nlab opa-singillarimiz “O‘zbekiston Qahramoni”, “O‘zbekiston fan arbobi”, “O‘zbekiston xalq o‘qituvchisi”, “O‘zbekiston xalq shoiri”, “O‘zbekiston xalq artisti” singari davlatimizning yuksak faxriy unvonlari, orden va medallariga sazovor bo‘lgan. Ularning orasida 500 nafardan ziyod fan doktorlari va akademiklar, minglab fan nomzodlari o‘z bilimi, iste’dodi bilan Vatanimiz ravnaqi yo‘lida astoydil xizmat qilib kelmoqda. Jamiyat va davlat hayotida faollik, tashabbuskorlik ko‘rsatgan, o‘zining samarali mehnati bilan oilaning shakllanishi va farovonligi mustahkamlanishi, onalik va bolalik muhofazasiga munosib hissa qo‘shgan xotin-qizlarga beriladigan “Mo‘tabar ayol” ko‘krak nishoni ta‘sis etildi.

Millatimiz tarixidan ma’lumki, o‘zbek ayoli, o‘zbek onalari nafaqat o‘z elimiz, balki dunyo hamjamiyati, umumbashariyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan mag‘rur, jasur va dono, mashhur ayollar – To‘maris, Bibixonim, Nodirabegim, Uvaysiyalar nomlari nafaqat biz uchun, balki ilg‘or fikrli dunyo ahli uchun ham ahamiyatli ekanini hammamiz yaxshi bilamiz.

Shuningdek, xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni, ularning ijtimoiylashuvida madaniy, ma’naviy va ijtimoiy-siyosiy omillarining ta’siriga doir fikrlar V.Vundt, E.Dyurkeym, P.Jane, U.Jeyms, Ch.Kuli, S.Koll, E.Klapared, J.Mill, B.Shtern va boshqa xorij olimlari asarlarida aks etgan.

O.Bo‘riyev, M.Vohidov, L.Munavvarova, O.Musurmanova, M.Mamatov, K.Nasriddinov, M.Sangilov, U.Toshtemirov, I.Shoyardonov, M.Xolmatova, M.O‘zbekov kabi mamlakatimiz olimlari oila, uning madaniyati, ijtimoiy muammolari masalasiga to‘xtalib, ularni ancha mufassal tadqiq etgan holda xotin-qizlarning oiladagi ijtimoiy faolligini o‘z ilmiy izlanishlarida asoslab berganlar.

Ayol qadrini qanchalik yuqoriga ko‘tarishga muyassar bo‘lsak, milliy g‘ururimiz, ma’naviyat va madaniyatimiz yanada yuksalishi, oilalarimiz barqarorligi ta’minlanishi, halol va pok, fidoyi, vatanparvar, jamiyatga foyda keltiruvchi, millatimizni butun jahon miqyosida ko‘z-ko‘z qildiruvchi farzandlarimiz soni kundan kunga ko‘paya borishi tabiiy holdir. Zero, har tomonlama faol va oqila, dono, izlanuvchan, zamonaviy ayol mehnatidan, salohiyatidan nafaqat uning oilasi, balki butun jamiyat manfaatdor bo‘lishi chin haqiqatdir. Biz qurayotgan jamiyatning og‘ir

Millatimiz tarixidan ma’lumki, o‘zbek ayoli, o‘zbek onalari nafaqat o‘z elimiz, balki dunyo hamjamiyati, umumbashariyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan mag‘rur, jasur va dono, mashhur ayollar – To‘maris, Bibixonim, Nodirabegim, Uvaysiyalar nomlari nafaqat biz uchun, balki ilg‘or fikrli dunyo ahli uchun ham ahamiyatli ekanini hammamiz yaxshi bilamiz

Ayolning har qanday ishga mas'uliyati ikki karra kuchli. Qayerda bo'lmasin, ta'lim tizimimi, sog'liqni saqlash yoki transport sohasimi, ayol o'z vazifasini ortig'i bilan bajara oladi. Biroq ba'zi sohalarda, to'g'rirog'i, ayollarni rahbar lavozimiga tayinlashda ularga nisbatan ishonchsizlik ustuvorlik qiladi

yukini dadil ko'tarib, uning poydevorini mustahkamlab turadigan asosiy kuch jamiyatimizdagi har bir oila, har bir inson, har bir fuqaro, shu jumladan, xotin-qizlar ekanligini unutmasligimiz kerak.

Mamlakatimizda ayollar o'z iqtidorlarini namoyon qilish qobiliyatiga yarasha ishlashi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Ana shu imkoniyatlardan foydalanish darajasi esa ayollarga bog'liq. Agar ayol o'zini nafaqat ayol sifatida, jamiyatdagi o'z o'rni va mavqeyini anglasa, unga tabiat ato etgan qobiliyatni to'g'ri yo'naltira olsa, faqat oila qurishni emas, balki halol mehnati bilan jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishi lozimligini hayotining maqsadi deb bilsa, bu ayol, albatta, o'z hayotidan qanoatlana oladi. Agarki faqat oilani hayotining asosiy maqsadi qilsa, pirovard natijada namoyon qilinmagan qobiliyat, foydalanilmagan imkoniyat, erishilmagan yutuqlar u uchun armon bo'lib qoladi va qalbida barcha narsaga erisha olgan ayollarga nisbatan hasad tuyg'usi shakllanadi. Bu, o'z navbatida, uning g'azabnok bo'lishiga olib keladi. Shunisi quvonarliki, so'nggi yigirma yilda o'z maqsadini aniq bilgan, oila bekasi, farzandlarining onasi bo'lish bilan bir qatorda jamiyat taraqqiyotining turli sohalarida kasbi orqali kamolotga erishayotgan ayollarning soni orib bormoqda. Yurtimizda barcha uchun "Teng imkoniyat va teng huquqlar belgilangan", shu bois maosh olish, ishga kirish, ma'lum sohada muayyan yutuqlarga erishish xoh erkak, xoh ayol bo'lsin, bu insonning maqsadli faoliyatiga bog'liq.

Ayolning har qanday ishga mas'uliyati ikki karra kuchli. Qayerda bo'lmasin, ta'lim tizimimi, sog'liqni saqlash yoki transport sohasimi, ayol o'z vazifasini ortig'i bilan bajara oladi. Biroq ba'zi sohalarda, to'g'rirog'i, ayollarni rahbar lavozimiga tayinlashda ularga nisbatan ishonchsizlik ustuvorlik qiladi. Lekin rahbar o'rinbosari vazifasida bir qancha ayollarimiz, jumladan G.Boqiyeva, B.Abdullayeva, G.Rixsiyeva va boshqa professorlar faol, na'munali rahbar sifatida ishlab kelmoqdalar. 90-yillarda esa professor Halima Alimova Toshkent tekstil va yengil sanoat instituti rektori lavozimida ishlagan va aynan shu institut O'zbekiston Respublikasi test markazi tomonidan o'tkazilgan attestatsiya hamda akkreditatsiyadan eng yuqori ball bilan birinchi o'rinni egallagan. H.Alimovanning boshqa ishga o'tganiga ancha yillar bo'lgan bo'lsa-da, institutda haligacha ular o'rnatgan temir tartibga rioya qilinib kelinmoqda. Nima uchun? Buning sababi shundaki, rahbar ayol o'z jamoasini oilasi sifatida qabul qiladi, xo'jalikdagi yutuq va kamchiliklarni sarhisob qilib, har qanday muammoni hal qilishning eng oson, beozor yo'lini tanlaydi.

XXI asr ayollarining esa farzand tarbiyasi, oilasiga sadoqatidan tashqari boshqa qadriyatlari ham shakllandi. Bu ularning jamiyatda o'z o'rnini topishga intilishi, egallagan kasbi orqali jamiyat taraqqiyotiga

munosib hissa qo‘shish istagidir, bu ijobiy holatdan tashqari takomillashgan maishiy xizmat ko‘rsatish texnologiyalari muayyan darajada qo‘l mehnatini osonlashtirdi.

Bugungi o‘zbek ayoli kim? U boshqaruvchimi yo buysunuvchi, ergashuvchimi yo ergashtiruvchi? Zamonaviy o‘zbek ayoli portretini qanday chizgilar bilan boyitish mumkin? Ayol, eng avvalo, “Ona”dir, keyin esa u boshqaruvchi va buysunuvchi, ergashtiruvchi va ergashuvchi hamdir.

Xotin-qizlarning ijtimoiy faoliyati ularning iqtidori, qobiliyati, tashabbuskorligi bilan belgilanadi. Hech bir davrda ayollar faqat boshliq bo‘lishi yoki faqat ergashishi lozim deb hisoblanmagan. Aksincha, hozirgi kunda xotin-qizlarga munosabat ijobiy tomonga o‘zgarib, ularning ona bo‘lishi bilan birga potensial qobiliyatlaridan foydalanishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.⁴

Ma‘lumki, mamlakatimiz XIX asr oxiri va XX asr boshlarining yetakchi ma‘rifatparvarlari M.Behbudiy, A.Fitrat va A.Avloniy xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni borasida keng fikrlar bildirganlar. Masalan, Fitratning “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asarida shunday fikrlar bor:⁵

“Ayollarning huquqlari, albatta, din va milliy qadriyatlar bilan ham bog‘liqdir. Islom dini kirib kelgunga qadar qizlar tug‘iliboq tiriklayin o‘ldirilgani ko‘pchilikka ma‘lum. Muqaddas Islom dini hamisha ayollarni e‘zozlashga buyuradi. “Jannat onalar oyog‘i ostidadir” degan naql asrlar osha o‘z mavqeyini yo‘qotganmagan. Islom ta‘limoti ayollarni ilm olish, mehnat qilish, meros huquqi, jamiyat taraqqiyotida faol qatnashishda erkaklar bilan teng huquqli qildi. Hadislarda “ilm olish har bir muslim va muslimaga xosdir”, deyilgan. Islomda oila, nikoh, meros masalalarida ayolga ko‘proq yon beriladi, nikohsiz yashashga ruxsat berilmay, shu tariqa ayolning huquqi ta‘minlanadi. Nikoh shartlaridan bo‘lmish mahr ham aynan ayollarning foydasi uchun joriy etilgan”.

O‘zbekistonning mustaqillik yillarida xotin-qizlarga e‘tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Oila kodeksida turmushda, oilaviy munosabatlarda ayollarning erkaklar bilan teng huquqli ekani, oila davlat tomonidan muhofaza etilishi o‘z aksini topgan. Shu vaqtga qadar ayollar huquqi himoyalangan ko‘plab qonun hujjatlari qabul qilindi. Ayniqsa, xotin-qizlarimizni ish bilan ta‘minlash, tabdirkorlik qilishlariga erkinlik berish, rag‘batlantirish borasida sezilarli ishlarni kuzatish mumkin.

⁴ Д.Базарова (ю.ф.н., профессор). “Ўзбекистонда хотин-қизлар ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш – давр талаби”. – Тошкент: ТДЮУ, 2019.

⁵ Абдурауф Фитрат. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. – Тошкент: Чўлпон, 2019.

Xotin-qizlarning ijtimoiy faoliyati ularning iqtidori, qobiliyati, tashabbuskorligi bilan belgilanadi. Hech bir davrda ayollar faqat boshliq bo‘lishi yoki faqat ergashishi lozim deb hisoblanmagan. Aksincha, hozirgi kunda xotin-qizlarga munosabat ijobiy tomonga o‘zgarib, ularning ona bo‘lishi bilan birga potensial qobiliyatlaridan foydalanishga alohida e‘tibor qaratilmoqda

Xotin-qizlar davlat qo‘mitasi ham ayollarimizning jamiyatdagi rolini oshirish maqsadida ularning ijtimoiy-siyosiy, moddiy-ma’naviy muammolarini tinglab, o‘z o‘rnida ularga kerakli bo‘lgan ham moddiy, ham ma’naviy yordam yo‘llarini topishga xizmat qilmoqda. Lekin shunday holatlar ham bo‘ladiki, ayol tushkunlikka tushib qoladi, huquqlarini bilmay xo‘rlanadi, yaqinlari tomonidan jazolanib, tazyiq va zo‘ravonlikka uchraydi, o‘qib ta’lim olishga imkon topolmaydi, ish izlab sarson bo‘ladi, farzandlari bilan yolg‘iz qoladi va hakoza

Xotin-qizlar davlat qo‘mitasi ham ayollarimizning jamiyatdagi rolini oshirish maqsadida ularning ijtimoiy-siyosiy, moddiy-ma’naviy muammolarini tinglab, o‘z o‘rnida ularga kerakli bo‘lgan ham moddiy, ham ma’naviy yordam yo‘llarini topishga xizmat qilmoqda. Lekin shunday holatlar ham bo‘ladiki, ayol tushkunlikka tushib qoladi, huquqlarini bilmay xo‘rlanadi, yaqinlari tomonidan jazolanib, tazyiq va zo‘ravonlikka uchraydi, o‘qib ta’lim olishga imkon topolmaydi, ish izlab sarson bo‘ladi, farzandlari bilan yolg‘iz qoladi va hakoza.

Aynan shunday paytlarda jamiyat ayolni yolg‘izlatib qo‘ymasligi kerak. Shu maqsadda ayollar uchun psixologik markazlar, maslahatxonalar, tibbiy, moddiy, huquqiy yordam tashkilotlari ko‘paytirilsa, ular ayollarning muammolarini hal etishga sidqidildan yordam bersa, jamiyatda baxtsiz ayolar soni yanada kamayishiga hissa qo‘shilgan bo‘lar edi.

Mazkur muhim masalalarga majmuaviy yondashuv tufayli ana shunday natijalar qo‘lga kiritilmoqda. Chunki mamlakatimizda nafaqat mustahkam huquqiy zamin, balki samarali institutsional baza ham mavjuddir. Bunga misol tariqasida O‘zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini keltirish mumkin. Mazkur jamoatchilik tashkiloti aholining ushbu qatlamini qo‘llab-quvvatlash hamda ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning samarali mexanizmiga aylangan.

Davlat boshqaruvida ayollarning ishtiroki borgan sari faol tus olmoqda. Xususan, bugungi kunda Oliy Majlis Senati a‘zolarining 17 foizi, Qonunchilik palatasi deputatlarining 16 foizi xotin-qizlardan iborat. Bundan tashqari, so‘nggi yillar davomida ijro hokimiyati idoralarida ham ayollarning faoliyat yuritish ko‘rsatkichlari 5 barobarga oshdi, ya’ni 3,4 foizdan 16 foizga yetdi.

Ayollar “qanoti” tuzilgani bois mamlakatdagi siyosiy partiyalarda xotin-qizlarning soni ham oshdi. Xotin-qizlar davlat qo‘mitasi ma’lumotlarida qayd etilishicha, hozirgi paytda O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasida ayollar soni 35 foizdan 38 foizga, Milliy tiklanish demokratik partiyasida 40 foizdan 46 foizga, Xalq-demokratik partiyasida 41 foizdan 56 foizga, Adolat sotsial demokratik partiyasida 38 foizdan 49 foizga yetdi⁶.

XX asr xotin-qizlarning o‘z huquq va erkinliklari, ijtimoiy-siyosiy imkoniyatlari va mas’uliyatlarini anglab yetishiga xizmat qilgan davr bo‘ldi. Xotin-qizlar minglab yillar davomida umuman ko‘rmagan va guvohi bo‘lmagan, orzu-intilishlarining mazmun-mohiyatiga aylangan

⁶ Ўзбекистон республикаси давлат статистика қўмитаси маълумотлари, 2019. stat.uz

siyosiy huquqlarga aynan shu asrda erishdilar. Ushbu asrda xotin-qizlarga nisbatan qarashlarning tubdan o'zgargani va endi nafaqat oilaviy hayot, balki davlat va jamiyat hayotida ayollar hamda erkaklarning maqomi ham tenglashgani diqqatga sazovordir.

Aytib o'tilgan yutuqlarga ayollar osonlik bilan erishayotganlari yo'q. Bir vaqtning o'zida oila ishlarini saranjomlash bilan birga ijtimoiy-siyosiy masalalarga ham vaqt topish, nafaqat vaqt topish, balki o'zlariga yuklatilgan vazifalarni ado etish, tom ma'noda, ijtimoiy-siyosiy masalalarda o'z maqomiga ega bo'lish, ulardan erkaklarga nisbatan ikki barobar ko'proq kuch-quvvat sarflashni talab qilmoqda.

Ayollarning jamiyatdagi o'rni va rolini oshirish, davlat boshqaruviga ularni yanada kengroq jalb qilish, mamlakatning siyosiy boshqaruvi sohasida ularning faolligini yanada oshirish vazifalari keng ahamiyat kasb etib bormoqda. XXI asrda dunyoning barcha mamlakatlarida ayollar siyosat bobida ham teng huquqlilikka erishmoqda, parlamentda salmoqli o'rinlarni egallamoqda. Masalan, Ukraina parlamentining 8 foizini ayollar tashkil qilsa, arab davlatlarida ham ushbu ko'rsatkich 8 foizni tashkil qiladi. Shvetsiya, Estoniya va boshqa Yevropa davlatlari parlamentlarida ayollar ko'pchilikni tashkil qilishi bilan ajralib turadi. Biroq Afrikadagi Ruanda mamlakatining parlamenti deputatlari ichida xotin-qizlarning soni bu borada butun Yevropani ortda qoldiradi. Ushbu davlat parlamentining 48,8 foizini xotin-qizlar egallagan. Undan keyin Shvetsiya 45%, Daniya 40%⁷. Bu holatning o'ziyoq xotin-qizlarning kun sayin zamonaviy imijga ega bo'lib, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotda faollashib borayotganligini ko'rsatib turibdi.

Zamonaviy ayol deganda, birinchi navbatda, oliy ma'lumotga ega, dunyoqarashi keng, iqtisodiy jihatdan mustaqil, ma'naviyati yuksak, faol rahbar yoki xodim, barkamol avlodni tarbiyalaydigan mehribon ona, hurmat-ehtimomga sazovor ayol, saranjom-sarishta bekani ko'z oldimizga keltiramiz. Bunday ayolning munosib ijtimoiy-siyosiy maqomini ta'minlash mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning tub maqsadidir.

Jamiyat hayotida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish zarur:

- xotin-qizlarning mehnat va turmush sharoitini yaxshilash masalalarini o'z ichiga olgan dasturlar ishlab chiqish;
- xotin-qizlarning o'z-o'zini band etish va tadbirkorlik tashabbusiga ko'maklashish;
- ish o'rinlarini yaratish, kasanachilik mehnatini tashkil etish.

⁷ Ўзбекистон республикаси давлат статистика кўмитаси маълумотлари, 2019 йил. stat.uz

Zamonaviy ayol deganda, birinchi navbatda, oliy ma'lumotga ega, dunyoqarashi keng, iqtisodiy jihatdan mustaqil, ma'naviyati yuksak, faol rahbar yoki xodim, barkamol avlodni tarbiyalaydigan mehribon ona, hurmat-ehtimomga sazovor ayol, saranjom-sarishta bekani ko'z oldimizga keltiramiz. Bunday ayolning munosib ijtimoiy-siyosiy maqomini ta'minlash mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning tub maqsadidir

Xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini kengaytirish maqsadida davlat darajasida quyidagi choralarni ko'rish zarur:

- yangi ish o'rinlarini yaratish;
- xalqaro banklar jamg'armalar va tashkilotlarni xotin-qizlarning ijtimoiy zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlash uchun kichik imtiyozli kreditlar olish imkoniyatlarini tashkil etishga jalb etish;
- uy bekalari bo'lgan xotin-qizlarni band qilish bo'yicha bepul o'quv kurslarini ochish;
- uy-fermer xo'jaliklariga soliq solish mexanizmini qayta ko'rib chiqish;
- kichik biznes sohasidagi qishloq xotin-qizlarini rivojlantirish va rag'batlantirish;
- xotin-qizlarga imtiyozli kreditlar berishni davom ettirish;
- xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish uchun jamoat va davlat tashkilotlarini jipslashtirish;
- xotin - qizlarning huquqiy savodxonligi va ijtimoiy faolligini oshirish uchun mahalla miqyosida ishlash, milliy qadriyatlarimizga asoslangan milliy hunar turlarining yo'q bo'lib ketmasligi uchun xotin-qizlarimizni jalb etish va hokazo.

Xulosa qilib aytganda, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish mamlakatimizda amalga oshiralayotgan islohotlarning muhim omili hisoblanadi. Zero, ayol – oila ustuni va jamiyat ko'rki. Oilalarimiz tinch va farovon bo'lsa, jamiyatimiz, davlatimiz ham mustahkam oilalar negiziga qurilgan davlat bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 2 февралдаги “Хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш ва оила институтини мустаҳкамлаш соҳасидаги фаолиятни тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5325-сон Фармони.*
2. *Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 1 мартдаги “Оила ва хотин-қизлар билан ишлаш, маҳалла ва нуронийларни қўллаб-қувватлаш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-81-сон Фармони.*
3. *Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 7 мартдаги “Оила ва хотин-қизларни тизимли қўллаб-қувватлашга доир ишларни янада жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-87-сон Фармони.*
4. *Базарова Д. “Ўзбекистонда хотин-қизлар ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш – давр талаби”. –Тошкент: ТДЮУ, 2019.*
5. *Абдурауф Фитрат. Оила ёки оила боиқариши тартиблари. – Тошкент: Чўпон, 2019.*
6. *Ўзбекистон республикаси давлат статистика қўмитаси маълумотлари, 2019. // www.stat.uz*

“OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬИ И ЖЕНЩИН»
“FAMILY AND WOMEN” RESEARCH INSTITUTE

**OILA, XOTIN-QIZLAR VA
IJTIMOIY HAYOT**
СЕМЬЯ, ЖЕНЩИНЫ И ОБЩЕСТВЕННАЯ ЖИЗНЬ
FAMILY, WOMEN AND SOCIAL LIFE

elektron ilmiy jurnal
электронный научный журнал
electronic scientific journal

3/2022

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan. “Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv” jurnalining vorisidir.

Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.

Журналу выдано «Свидетельство о государственной регистрации средств массовой информации» № 1190 Управлением печати и информации города Ташкент от 17 июня 2021 года. Журнал “Семья, женщины и общественная жизнь” считается продолжение журнала “Социальное управление”.

Настоящий журнал – издание, специализирующееся на применении междисциплинарных, фундаментальных научно-практических исследований и инновационных идей во всех социальных вопросах, касающихся укрепления институтов махалли, семьи и гендерного равенства.

The journal was issued «Certificate of state registration of mass media» No.1190 by the Press and Information Department of Tashkent city dated June 17, 2021. The journal «Family, women and social life» is a continuation of the journal «Social management».

This journal is a publication specializing in the application of interdisciplinary, fundamental scientific and practical researches and innovative ideas in all social issues related to strengthening the institutions of makhalla, family and gender equality.

MUASSIS:

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,
Jo‘rayeva M., Razzakova N.,
Sobirova E., Jabborov U.**

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizayner: **Yakubov O.**

Jurnaldagi materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e‘tiborga olgan holda jurnalga havola berilishi shart.

Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 21.08.2022.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 11,6.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoilıy ko‘chasi 1-G uy.

“SANBOOK EXCLUSIVE PRINT” XK bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent, Yangıhayot tumani, 5-qurılısh hududi, 9-uy.